

“O‘zsuvta‘minot” AJ tizimidagi suv ta‘minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan ichimlik suv va oqova suv xizmatlari uchun belgilangan narxlar (tariflar) to‘g‘risida

M A ‘ L U M O T

O‘zbekiston Respublikasi “Tabiiy monopoliyalar to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq suv ta‘minoti va kanalizatsiya xizmatlarini ko‘rsatish tabiiy monopoliya xizmatlari hisobladi va ushbu xizmatlar narxlari davlat tomonidan tartibga solinadi (Moliya vazirligida deklaratsiya qilinadi).

Ichimlik va oqova suv ta‘minoti narxlarini shakllantirilishida oldingi yillarda korxonalarining asosan joriy harajatlari va majburiyatlari inobatga olinib, joriy va mukammal ta‘mirlash xarajatlari qisman kiritilib, xizmat muddatini o‘tab bo‘lgan tarmoqlar, suv ko‘tarish nasos stansiyalari, ichimlik va oqova suv tozalash inshootlaridagi uskunalarni o‘z vaqtida almashtirish hamda rekonstruksiya va modernizatsiya qilishga zarur xarajatlar narxlarida deyarli ko‘zda tutilmaganligi sababli xizmat ko‘rsatish sifati yildan yilga pasayib kelgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 26-noyabrdagi PF-5883-son Farmoniga muvofiq, 2020-yil 1-yanvardan O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosining ko‘rsatilayotgan suv ta‘minoti va suv chiqarish xizmatlari uchun to‘lovlarning to‘liqligi va o‘z vaqtida amalga oshirilishini ta‘minlash, iste‘molchilarning qarzdorligini kamaytirish bo‘yicha funksiyalari “O‘zsuvta‘minot” AJ va uning tarkibiga kiruvchi tashkilotlarga o‘tkazilgan.

Bundan tashqari, ilgari kommunal xizmatlarga narxlar va tariflarni tasdiqlash yoki keyinchalik qayta ko‘rib chiqishda narxlar va tariflar o‘shining 10 foizi, ushbu kommunal xizmatlar yetkazib beruvchi tashkilotlarning o‘z daromadlari hisobidan qoplanar edi. Mazkur tartib, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 10-yanvardagi PF-5620-sonli Farmoniga asosan bekor qilingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichimlik suvi ta‘minoti va oqova suv tizimini yana-da takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 25-sentyabrdagi PF-6074-son Farmonining 3-bandida:

2020-yil 1-oktyabrdan boshlab hududlarda tashkiliy-huquqiy shaklidan qat‘i nazar, suv ta‘minoti va oqova suv tashkilotlari tomonidan ko‘rsatiladigan suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlar (tariflar) ular bo‘yicha dastlab monopoliyaga qarshi kurashish va narxlarni (tariflarni) tartibga solish organlari xulosalari olinib, keyinchalik tegishligicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari qarorlari bilan ma‘qullanganidan so‘ng tasdiqlanishi;

bunda, suv ta‘minoti va oqova suv xizmatlari uchun tariflarni o‘rnatilgan tartibda shakllantirish va belgilashda iste‘molchilar uchun ko‘rsatiladigan xizmatlar tannarxini to‘liq qoplash nazarda tutilishi, shuningdek, suv ta‘minoti va oqova suv

tashkilotlarini rivojlantirish hamda modernizatsiya qilish xarajatlari hisobga olinishi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-apreldagi 309-sonli qarori bilan tasdiqlangan Suv ta‘minoti va oqova xizmatlari uchun tartibga solinadigan narxlarni (tariflarni) shakllantirish, deklaratsiya qilish (tasdiqlash) va belgilash tartibi to‘g‘risidagi Nizomning 12-bandiga muvofiq, suv ta‘minoti va oqova xizmatlari uchun tariflar xarajatlarini, shu jumladan tashkilotlarning “Uyjoykommunxizmat” vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan investitsiyalar va xizmatlar ko‘rsatish rejalariga muvofiq suv ta‘minoti hamda oqova tizimlarini kengaytirish va modernizatsiya qilish xarajatlarini to‘liq qoplash prinsiplariga asosan belgilanishi va 14-bandiga asosan daromadning talab qilinadigan darajasining “**xarajatlar plyus**” uslubi bo‘yicha hisob-kitobi:

yillik barcha ishlab chiqarish xarajatlari (masalan, materiallar, ish haqi, elektr energiyasi, amortizatsiya ajratmalari);

davr xarajatlari (masalan, sotish xarajatlari, boshqaruv xarajatlari, boshqa operatsion xarajatlar va zararlar);

modernizatsiya va rekonstruksiya qilish uchun tashkilotning yillik daromadi hisobidan to‘lanadigan xarajatlar;

moliyaviy faoliyatni amalga oshirish xarajatlari (foizli xarajatlar);

tashkilotning foyda olishini o‘z ichiga oladigan operatsion xarajatlar (investitsiyalar va xizmatlar ko‘rsatishning tasdiqlangan rejasiga muvofiq) hisobga olingan holda amalga oshirilishi, natijada hosil bo‘lgan summa rejalashtirish davrida tashkilot kelishilgan qarzlarni bo‘yicha asosiy qarz summasini o‘zining pulli xarajatlarini inobatga olgan holda, investitsiyalar va xizmatlar ko‘rsatish rejasi amal qiladigan muddatda qoplashi uchun yetarli bo‘lishi zarurligi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Uy-joy kommunal xizmat ko‘rsatish vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” 2017-yil 18-iyuldagi PQ-2900-son Qarorga muvofiq Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan hududiy moliya organlari bilan kelishilgan holda belgilanadigan ichimlik suv ta‘minoti uchun hamda “O‘zbekiston Respublikasida ichimlik suvi ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 30-noyabrdagi PQ-4040-son qaroriga muvofiq oqova suv xizmatlari tariflariga **maxsus ustama puli** belgilanishi qayd etilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 25-fevraldagi 05/1-4774-sonli topshirig‘iga (Toshkent shahar hokimining 2019-yil 19-apreldagi 499-sonli qaroriga) asosan ichimlik suvi va oqova xizmatlari uchun maxsus ustama haq miqdorlari **Toshkent shahrida 100 so‘m/m³** dan qo‘llanilishi, shuningdek **respublikamizning boshqa hududlari iste‘molchilari uchun** ichimlik suvi va oqova xizmatlari uchun maxsus ustama haq miqdorlari **50 so‘m/m³** dan qo‘llanilishi belgilangan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 15-iyuldagi 194-son qarori bilan tasdiqlangan Iste‘molchilarga suv ta‘minoti va oqova suvni chiqarish xizmatlari ko‘rsatish Qoidalarining:

91-bandida iste‘molchilarning kommunal kanalizatsiya tizimiga chiqariladigan oqova suvlari miqdori kommunal suv ta‘minoti tizimidan sarflangan suv miqdoriga teng deb qabul qilinishi va markazlashtirilgan issiq suv ta‘minoti mavjud turar joy va noturar joy xonalaridan chiqadigan oqova suv miqdori iste‘molchilari uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari tomonidan tasdiqlanadigan qaror bilan belgilangan koeffitsiyentga ko‘ra, (barcha guruh iste‘molchilari uchun **2 koeffitsiyentdan oshmagan holda**), mahalliy sharoitlardan kelib chiqib belgilishi;

98-bandida suv hisobga olish asbobi mavjud bo‘lmagan I guruh iste‘molchilari suv ta‘minoti va oqova suvni chiqarish tizimlarida ko‘rsatilgan xizmatlar uchun I guruh iste‘molchilari uchun belgilangan tariflarga qonunchilikda belgilangan **orttiriluvchi koeffitsiyent qo‘llanilishi** (*Ma‘lumot uchun: Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 6-noyabrdagi 300-sonli qarorining 11-bandiga asosan 2013-yil 1-dekabrda ichimlik suvi individual hisobga olish asbobiga ega bo‘lmagan jismoniy shaxslarga ichimlik suv ta‘minoti xizmatlari uchun belgilangan tariflarga 1,5 oshiruvchi koeffitsiyent qo‘llanilishi belgilangan*);

“O‘zsuvta‘minot” AJ tizimidagi suv ta‘minoti korxonalari tomonidan ichimlik suvi va oqova xizmatlari uchun taqdim etilgan yangi narx (tarif) loyihalari Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasining hududiy boshqarmalari tomonidan o‘rganib chiqilib, quyidagi takliflar berilgan.

“O‘zsuvta‘minot” AJning hududiy suv ta‘minoti korxonalari tomonidan ichimlik suv va oqova suv xizmatlari uchun yangi tarif belgilash bo‘yicha loyihalari Qo‘mitaning hududiy boshqarmalariga kiritilib, respublika bo‘yicha **o‘rtacha 2,4 barobarga** oshirish bo‘yicha takliflar kiritilgan.

Ichimlik va oqova suv xizmatlari narxlarini shakllantirishda ichimlik va oqova suv tarmoqlarini ta‘mirlash, ichimlik va oqova suv tozalash inshootlaridagi uskuna va nasoslarni zamonaviylariga almashtirish hamda yangi inshootlarni qurish kabi xarajatlar inobatga olingan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kommunal xizmat ko‘rsatish sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning yangi bosqichi to‘g‘risida” 2001-yil 17-apreldagi PF-2832-son Farmoniga muvofiq, korxonalar tomonidan ichimlik va oqova suv xizmatlari narxlarini shakllantirishda rentabellik (sof foydaning ishlab chiqarish tannarxiga nisbati) darajasi **o‘n foiz** atrofida belgilangan.

Qo‘mitaning hududiy boshqarmalari o‘z navbatida ushbu tarif loyihalarini o‘rnatilgan tartibda ko‘rib chiqib, korxonalarining xarajatlarini maqbullashtirish hisobiga taklif etilgan yangi narxlarni o‘rtacha **18,2 foizga** kamaytirish bo‘yicha o‘z xulosalarini bergan.

Masalan: “Navoiy suv ta‘minoti” MCHJ tomonidan ichimlik suviga belgilanadigan amaldagi narx, yangi narx bo‘yicha berilgan takliflari hamda monopoliyaga qarshi hududiy

boshqarma tomnidan berilgan takliflardagi asosiy xarajatlar bo'yicha taqqoslama ma'lumot quyida taqdim etilmoqda.

T/r	Xarajatlar va ko'rsatkichlar	o'lchov birligi	amaldagi narxda	yangi narx bo'yicha suv ta'minoti korxonasi tomonidan taqdim etilgan taklifida	monopoliyaga qarshi kurashish organi taklifi	Farqi (7=6-5)
1	2	3	4	5	6	7
1	elektr energiyasi	mln. so'm	768,1	801,5	801,5	-
2	ishlab chiqarishga bevosita bog'liq xodimlarning ish haqi	mln. so'm	4 158,7	11 205,3	6 898,9	- 4 306,4
3	sotib olinadigan suv xarajatlari	mln. so'm	3 818,3	6 423,9	9 449,7	3 025,8
4	amortizatsiya xarajatlari	mln. so'm	6 674,9	10 322,9	10 322,9	-
5	joriy va mukammal ta'mirlash xarajatlari	mln. so'm	753,7	1 008,1	1 008,1	-
6	yordamchi materiallar harajati	mln. so'm	14,0	1 098,8	1 098,8	-
7	tarmoqlarni modernizatsiya qilish xarajatlari (ko'cha kolonkalariga ulangan 7500 ta abonentning xonadonigacha tarmoqlarni tortib berish, maxsus mashina va mexanizmlar sotib olish)	mln. so'm	-	30 086,1	17 247,5	-12 838,6
8	nazoratchilar ish haqi xarajatlari	mln. so'm	2 162,4	8 153,4	6 132,0	-2 021,4
9	Osiyo tarraqiyot bankidan olingan kredit xarajatlari	mln. so'm	1 376,0	1 414,4	1 414,4	-
10	iste'molchilarga yetkazib beriladigan suv hajmi	ming m3	14 978,3	15 569,9	19 260,1	3 690,2

Bundan ko'rinib turibdiki, xarajatlarning asosiy ulushini, ya'ni **40,5 foizini** tarmoqlarni modernizatsiya qilish xarajatlari tashkil etib, ushbu xarajatlar oldingi narxlarda inobatga olinmagan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ichimlik va oqova suv tariflari shakllanishining iqtisodiy asoslanganligi yuzasidan Qo'mitaning hududiy boshqarmalari tomonidan o'rganib chiqilgan va tegishli tavsiyalarini inobatga olib tasdiqlangan.

O'z navbatida, ichimlik va oqova suv tariflariga kiritilgan xarajatlarning amalda bajarilishi yuzasidan yil yakunlari bo'yicha Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan belgilangan tartibda nazorat ishlari olib boriladi.

Agar narxga kiritilgan xarajatlar, ya'ni muddatini o'tab bo'lgan tarmoqlar, suv ko'tarish nasos stansiyalari, ichimlik va oqova suv tozalash inshootlaridagi uskunalarini o'z vaqtida almashtirish hamda rekonstruksiya va modernizatsiya qilish ishlari amalda bajarilmasa Qo'mita tomonidan tariflarni oshirilgan qismini iste'molchilar foydasiga qayta hisob-kitob qilinishi yuzasidan tegishli choralar ko'riladi.